

webtoon_uz

OTAM O'Z KUCHINI YASHIRADI

by_ChaeAlh

MEN LILIT
BRAUNMAN
(7 YOSH DAMAN)

UCH YOSHIM DAN
BOSHLAB, O' TGAN
HAYOTIMNING
XOTIRALARI MENGA
QAYTA KELA
BOSHLADI.

ENDI, YETTI
YOSHIM DA, O' TGAN
HAYOTIMNING BARCHA
XOTIRALARINI
ESLAYMAN.

HATTO, BU DUNYO MEN O' QIGAN
FANTASTIK ROMANNING BIR QISMI
EKANINI HAM BILAMAN.

GARCHI, O' TGAN
HAYOTIMDA HATTO
INSON HAM
BO' LMAGANDIM.

MEN...

KOLLEJ
TALABASI EDIM.

ROSTINI AYTSAM, BUNI INSONIY
HAYOT DEB BO' LMASDI.

SHUNDAY QILIB,
25 YOSHGA
TO' LGANIMDA,

INSHO YOZISH UCHUN
TUN BO' YI UXLASHGA
HAM ULGURMAY,
ORTIQCHA ISHLASHDAN
VAFOT ETDIM.

USHBU INSHONING
SARLAVHASI:

Janr romanlarida ko' zga tashlanadigan
ijtimoiy islohot xususiyatlari haqida tadqiqot
<Fantastik romani misolida>

BIROZ KISHI INSHO
USTIDA QAY DARAJADA
STRESSGA TUSHSA,
AYNAN UNING ICHIDA
QAYTA TUG' ILADI?

O' TGAN HAYOTIMNI
ESLASHNI
BOSHLASHIM DAN
OLDIN,

MEN BOSHQA
HAR QANDAY
CHAQALOQDAN
FARQ QILMASDIM.

HAMMA NARSANI
ESLASAM HAM,
O'TMISHINGA CHUQUR
DIQQAT QARASAM
HAM, O'TMISHIM
HANUZGACHA NOANIQ.

SHUNDAY QILIB, MEN
TABIIY RAVISHDA
BUNGA KO'NIKA
BOSHLADIM....

다익

BALKI
BROKKLINI
TUXUM OSTIGA
YASHIRISHIM
KERAKDIR.

다익

GARCHI KATTA
ODAMNING FIKRLASH
JARAYONIGA EGA
BO'LSAM HAM,

BROKKOLIGA
BO'LGAN NAFRATIM
O'RGARMAGAN.

BUGUN
SOCHLARINGNI
QANDAY QILIB
YIG'SAM BO'LADI?


QUYONCHAMI?
YOKI MALIKA?

QUYONCHA:
ikki dumli

MALIKA:
yarim yuqori
yig'ilgan soch

DADA, MEN HALI
HAM BOLAMAN,
TO'G'RIMI?

SHUNCHAKI BITTA
QILIB BOG'LAB
QO'YING.



MENI MALIKAM HALI HAM
CHAQALOQ. SEN HATTO HALI
BELIMGA HAM YETMAYSAN.

BU SHUNCHALIK
MENI BO'YIMNI DEB,
TUSHUNDINGIZMI?

NIMAGADIR,
QO'SHNINI BESH
YOSHLI BOLASIDAN
HAM KICHKINAMAN.

AMMO AQLIM
KATTALARNIKIDEK.

...LEKIN EHTIMOL
KATTALAR MENI G'ALATI
DEB O'YLAMASLIGI UCHUN,
BUNI MINIMAL DARAJADA
USHLASHIM KERAK,
TO'G'RIMI?

MEN SHUNCHAKI
QUYONCHA SOCH
TURMAGINI
XOHLAYMAN.

QUYONCHA?
AJOYIB.

VAU~ JUDA CHIROYLI.

KIM SENGA BUNCHALIK YOQIMTOY BO'LISHGA RUXSAT BERDI, A?

AHH, MENI O'PISHNI BAS QILING!

TO'G'RI, MALIKAM, BUGUN BOZORGA BORISHIM KERAK, SHUNING UCHUN QO'SHNINIKIGA O'YNAGANI CHIQASAN.

QO'SHNILARNI OGOHLANTIRIB QO'YAMAN.

NEGA? MEN HAM BORA OLAMAYMANMI?

HOZIRCHA YO'Q. SO'NGGI PAYTLARDA BU YERDA QO'RQINCHLI HUKUMAT ODAMLARI YURIBDI.

AXIR, ULAR MENI NISHONGA OLISHMAYDIKU.

MENDA HATTO BIR TOMCHI HAM KUCH YO'Q.

BARIBIR BO'LMAYDI. JUDA XAVFLI.

DADAM GAPIRAYOTGAN QO'RQINCHLI HUKUMAT ODAMLARI IMPERATOR OILASINING ELITA ARMIYASI.

ULARNING 90 000 METR YO'L BOSIB

FAQAT BA'ZAN BU YERGA KELISHINING

SABABI, ULAR MAXSUS KUCHGA EGA BO'LGAN ODAMLARNI IZLASHADI.

"DOS ISYONI"
DUNYOSIDA ODAMLAR
IKKI TOIFAGA
BO'LINGAN EDI.

SEHR ISHLATA
OLADIGAN
QUDRATLILAR.

VA SEHRGA EGA
BO'LMAGAN
"ODDIYLAR".

GARCHI QUDRATLILAR
DEYARLI QIROL'LARDEK
E'TIROF ETILSALAR HAM-

ULARNING KUCH
DARAJASIGA ASOSLANGAN
"MONARXIYA" B'ARIBIR
"MAVJUD" EDI.

HAR QANDAY VAQTDA URUSHGA
SABAB BO'LISHI MUMKIN BO'LGAN,
QUDRATLILARGA BOG'LIQ MO'RT BIR
PIRAMIDA.

BU VOQEADA ASOSIY
QAHRAMONLAR UZLUKSIZ
HALOK BO'LARDI...

ODDIY ODAMLARNING
AKSARIYATI ESA HATTOKI
FON PERSONAJLAR
QATORIGA HAM
KIRMASDI.

MEN VA DADAM HAM
SHULAR QATORIDAMIZ.

ODDIY JIGARRANG
SOCH VA JIGARRANG
KO'ZLAR.

shu brokkolini
yesa yaxshi
bo'lardi...

HATTO UNING
ISMI HAM
-JEYMS BRAUN-
JUDA ODDIY.

U SHUNCHAKI ORTIQCHA
BIR PERSONAJ.



XO'SH..., BU ENG
YAXSHI VARIANT
DEB O'YLAYMAN!

ODDIY BO'LISH HAM
JUDA KATTA NE'MAT
BILASIZMI?!

HM? NIMA
DEYAPSAN?

TASHQARIDA JUDA
QO'RQINCHLI
DUNYO BOR.
MEN SIZ BILAN
SHUNDAY YOQIMLI VA
ODDIY HAYOT
KECHIRISHNI YAXSHI
KO'RAMAN, DADA.

MEN JUDA
BAXTLIMAN!



Otam o'z kuchini yashiradi 2_qism



U KASAL EMAS, LEKIN HECH NARSA URMAYAPTI.



ISHONCHIM KOMILKI, U JUDA OCH, LEKIN UNGA SHISHASINI BERSAM, SHUNCHAKI YIG'LAYVERAYAPTI...

KELING, BIR KO'RAY...



HA, TUSHUNDIM.

QIZINGIZ JUDA QIYNALGAN BO'LSA KERAK. ICHKARIGA KIRING.



MANA, BU BOLALAR UCHUN OVQAT.

SUTGA OZGINA EZILGAN OLMA VA BANAN QO'SHDIM.

ENDI BOLA YEYISHI KERAK.



GARCHI BESH OYLIKDAN OSHGAN BO'LSA HAM, FAQAT SUT ICHIB KELGAN.

U BUNGA JUDA TO'YIB KETGAN VA OXIR-OQIBAT CHIDASHGA QURBI YETMAGAN.

SHUNDAN KEYIN...U BIZGA JUDA KO'P YORDAM BERDI.

men biroz o'tin chopdim. yarmisini olishingiz mumkun.

voy, rahmat.



VA HAR DOIM BIZNI KO'RSA, SALOMLAHIB O'TADIGAN BO'LDI.


CHUNKI U BIRINCHI MARTA FARZAND TARBİYALAYOTGAN EDI,

O'SHANDAN BERI BIZDAN MASLAHAT SO'RAB TURARDI.



DADAM BIR PAYTLAR SHUNDAY BO'LGANIGA ISHONISH QIYIN...

BIZ U BILAN JUDA YAQINMIZ.



FLESH!
HAHAHA!



CH/H: BU SO'ZLAR KARTA O'YNIDA BO'LAR EKAN SHUNING UCHUN BULARNI TARJIMA QILMADIM.

TO' XTANG.



HEH.

FULL HOUSE.



YANA URINIB KO'RING!
RAQIBLARNI HAR DOIM
MAMNUNIYAT BILAN
QABUL QILAMAN.

HEY! QANDAY QILIB
"FULL HOUSE"
CHIQUARDING?!



BUGUN MEN BILAN
O'YNAGANINGIZ
UCHUN RAHMAT.




SIZ AVVAL
ICHKARIGA
KIRAVERING. MEN
KIR YUVIB KELAMAN.

DADAM CHARCHAB
KELADI, SHUNING
UCHUN UNING
O'RNIGA MEN
QILAMAN!



VOY... SEN XUDDI
FARISHTADEKXAN,
LILIT.


UNDA, MEN SENGAYORDAM BERAMAN. MANA SHU KIYIMLARNI?




Y-YO'Q, BO'LMAYDI!

BU YERDA... DADAMNING ICHKI KIYIMLARI BOR.

Ohh.



지백 지백



GARCHI DADAM MEN YUVISHIMNI YOQTIRMASA HAM...



BARIBIR QILAMAN.

O'TGAN HAYOTIMDA YETIM BO'LGANIM UCHUN,

OTA-ONAGA OID MEHRIBONLIKNI FAQAT SHU HAYOTIMDANGINA HIS QILGANMAN.


U HALI JUDA YOSH BO'LSA HAM, HAR KUNI TAGLIKLARIMNI ALMASHTIRARDI,

MENI OVQATLANTIRDI VA YUVINTIRARDI.



MENI HAR DOIM YONIMDA BO'LGAN BU ODAM -DADAM- MEN UCHUN JUDA QADRLI.

TEZROQ ULG'AYIB, UNGA KO'PROQ YORDAM BERISHIM KERAK!



ODDIY BIR FON PERSONAJNING HAYOTI NAQADAR OSOYISHTA...

DOIM SHUNDAY DAVOM ETSA EDI.



GARCHI BU
DUNYODA ODDIY
BO'LGANIM UCHUN
MENGA YOMON
MUNOSABATDA
BO'LISHSA HAM,

VA BIROZ
QASHSHOQ
BO'LSAM HAM,

ASOSIY
QAHRAMONLAR
ODDIY ODAMLAR
UCHUN INQILOB
BOSHLASHGACH,

VA
YAXSHIROQ
DUNYO
YARATILGACH,

MENGA FAQAT
ORQAGA SUYANIB,
ROHATLANISH
QOLADI.

O'TGAN
HAYOTIM BILAN
SOLISHTIRGANDA,
BU AJOYIB!

IKKINCHI
HAYOTIM ENG
ZO'RI!

HMM? NEGA
O'RMONDA
OTLARNING OVOZI
ESHITAYAPMAN?

HIYAH!


BU GERB...

BU
HARBIYLAR!

VA KO'K PLASH...



DOS
DARAJASIDAGI
RITSARLAR
ORDENI?!



TUTINGLAR
UNI!

?!





WEBTOONS WORLD

WEBTOON OLAMI

Tarjimon : Chae Ah

Cleaner : Chae Ah

Yozuuchi : Chae Ah

